



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2021/5



# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 **ОДИЛҚОРИЕВ ХОЖИМУРОД  
ТЎХТАМУРОВОВИЧ**  
Қонунчилик ҳужжатлари тизимини  
такомиллаштиришнинг замонавий ҳуқуқий  
асослари
- 14 **МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА  
АБДУРАШИДОВНА**  
Роль преемственности трудов Гафура Гуляма  
в развитии духовно-просветительских традиций  
будущих юристов
- 21 **ISMOILOV BEKJON SALIHOVICH**  
Nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limi sohasida  
O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish  
muammolari
- 31 **ШАЯКУБОВ БАБУР АХМАДЖАНОВИЧ**  
Стратегическое планирование:  
теоретические и методологические аспекты

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ.  
MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 39 **БЕКОВ ИХТИЁР РУСТАМОВИЧ**  
Ўзбекистонда кўппартиявий тизимнинг  
шаклланиши ва ривожланиши
- 50 **RAKHIMOV DILMURODJON  
GULOMJON OGLI**  
Some issues of the legal status of civil  
servants in Uzbekistan

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA  
HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 59 **БОЗАРОВ САРДОР СОХИБЖОНОВИЧ**  
Искусственный интеллект: возможна ли  
ответственность роботов?

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. XO'JALIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA  
MEDIATSIYA

- 70 **ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН  
ЮЛЧИБОВЕВИЧ**  
Фуқаролик ишлари бўйича биринчи  
инстанция суди ҳужжатларини  
такомиллаштириш масалалари
- 81 **ХАКБЕРДИЕВ АБДУМУРАД  
АБДУСАИДОВИЧ**  
Ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорини якуний  
босқич сифатида ихтиёрий ижро этиш
- 88 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**  
Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirishda sun'iy  
intellektning o'rni
- 95 **XUDOYNazarov DADAXON  
AVAZ O'G'LI**  
Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokuror  
ishtirokining ayrim masalalari
- 101 **DAVRONOV DONIYORBЕК  
ABDULLO O'G'LI**  
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual  
majburlov choralarini tadqiq etish muammolari
- 110 **ХАЙРУЛИНА АСАЛЬ БАХОДИРОВНА**  
Возникновение и развитие альтернативных  
способов разрешения споров: национальный  
и зарубежный опыт
- 117 **BEBUTOVA ZARNIGOR FAXRIDDINOVNA**  
Fuqarolik protsessida advokat faoliyatining  
dolzarb muammolari: milliy va xorijiy tajriba
- 125 **СУБХОНОВ ШЕРАЛИ МУХАММАД УГЛИ**  
Некоторые вопросы совершенствования  
механизма исполнения судебных решений  
о взыскании алиментов

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI.  
IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

- 133 **ГАЗИЕВ ШАХРУХ МУРОДАЛИЕВИЧ**  
Ҳарбий ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя:  
тушунчаси ва моҳияти
- 140 **ТОШОВ МУХАММАД РАЖАБОВИЧ**  
Ўриндошлик асосида ишламайдиган бошқа  
ходимнинг ишга қабул қилиниши, шунингдек,  
ўриндошлик иши чекланганлиги сабабли  
меҳнат шартномасини бекор қилиш масалалари

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI  
OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

148 **SUNNATOV VOHID TOSHMURODOVICH**

Qilmishni kvalifikatsiya qilish tushunchasi,  
metodologik asoslari va bosqichlari

156 **ТОШПЎЛАТОВ АКРОМ ИКРОМОВИЧ**

Жиноят-хуқуқий принциплар: моҳият,  
тушунча ва белгилар

166 **ALOYEV ULUG'BEK MAXMUDOVICH  
ROZIMOVA QUNDUZ YULDASHEVNA**

Korrupsiyani keltirib chiqarishga ta'sir etuvchi  
omillar

174 **АНОРБОВ МУРОДЖОН  
РАХМАНКУЛ УГЛИ**

Общая характеристика преступлений  
против правосудия

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

182 **USMANOVA SURAYYO BULTAKOVNA**

The legal and institutional regulation of tourism  
in the Republic of Uzbekistan: emergence and  
development

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA  
NAZARIYASI VA METODIKASI  
(SOHALAR BO'YICHA)

190 **АЗИМОВ ҲАКИМАЛИ ИМОМОВИЧ**

Амир Темурнинг тарихий мероси – инсоният  
тараққиётининг муҳим омили

UDC: 347.9(042)(575.1)  
ORCID: 0000-0003-1786-8095

## FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHDA PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARINI TADQIQ ETISH MUAMMOLARI

**Davronov Doniyorbek Abdullo o'g'li,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
"Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi"  
kafedrası o'qituvchisi,  
e-mail: doniyorbekdavronov98@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida qo'llaniladigan majburlov choralari tushunchasi, zarurati, ahamiyati va majburlov choralarini qo'llash bilan bog'liq amaliy muammolar, bu boradagi xalqaro mamlakatlar tajribasi, majburlov choralarini jamiyatda, sud-huquq tizimidagi o'rni va ahamiyati, majburlov choralarini qo'llash asoslari va tartibi, fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida majburlov choralarini qo'llash bilan bog'liq yuzaga kelayotgan muammolar, protsessual majburlov choralari borasidagi nazariy va amaliy masalalar, majburlov choralarini qo'llash tartibi, asoslari, muddati masalalari, sud jarimasini qo'llash bilan bog'liq masalalar, jarima miqdorini oshirish yoki aksincha, kamaytirish, fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud tartibini buzish holatlari yuz berganda, taraflarni ogohlantirish, sud zalidan chiqarib yuborish bilan bog'liq sud ishlarini yuritish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning tahlili, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligi va uning normalarining xorijiy mamlakatlar fuqarolik qonunchiligi asosidagi tahlili, xorijiy mamlakatlar tajribasida protsessual majburlov choralari, uni qo'llash tartibi, xorijiy va milliy fuqarolik protsessual qonunchiligining qiyosiy tahlili, fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida protsessual majburlov choralarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** majburlov chorasini, sud jarimasi, sud zalidan chiqarib yuborish, majburiy keltirish, ogohlantirish, ajrim, sud bayonnomasi, sud topshirig'i.

### ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ МЕР ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ

**Давронов Дониёрбек Абдулло угли,**  
преподаватель кафедры  
"Гражданское процессуальное и экономическое процессуальное право"  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотации.** В статье описаны понятие, необходимость, важность и практические проблемы, связанные с применением принудительных мер в гражданском судопроизводстве, опыт международных стран в этой сфере, роль и значение принудительных мер в обществе, судебной системе, основания и порядок их применения. Освещаются вопросы применения мер принуждения, проблемы, возникающие при их применении, процессуальные меры принуждения, теоретические и практические аспекты, связанные с порядком, основаниями, сроками применения мер принуждения, вопросы, судебными штрафами, увеличением или уменьшением их размера, уведомлением сторон в случае нарушения судебного порядка в гражданском процессе, судебными разбирательствами, в том числе с выдворением из зала суда. Выявлены и проанализированы проблемы, возникающие в процессе уголовного преследования, изучены гражданское процессуальное законодательство Республики Узбекистан и нормы гражданского права зарубежных стран, процессуальные меры принуждения в зарубежной практике, их применение, дан сравнительный анализ зарубежного и национального гражданского процессуального законодательства. На основе исследования даны предложения и рекомендации по совершенствованию мер процессуального принуждения в ходе судопроизводства.

**Ключевые слова:** меры принуждения, судебный штраф, удаление из зала судебного заседания, принуждение, обязательная явка, предупреждение, определение, судебный протокол, постановление суда

## PROBLEMS OF RESEARCH OF PROCEDURAL COERCIVE MEASURES IN CIVIL PROCEEDINGS

**Davronov Doniyorbek Abdullo ugli,**

Lecturer at the Department of Civil Procedural and Economic Procedural Law,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article describes the concept, necessity, importance and practical problems associated with the application of coercive measures in civil proceedings, the experience of international countries in this area, the role of coercive measures in society, the judicial system and importance, grounds and procedure for application of coercive measures, problems arising from the application of coercive measures in civil proceedings related to the application of coercive measures in civil proceedings, procedural coercive measures theoretical and practical issues, procedure, grounds, terms of application of coercive measures, issues related to the application of court fines, increase or decrease of the amount of fines, notification of the parties in case of violation of judicial order in civil proceedings, court court proceedings related to eviction from the courtroom y Problems arising in the process of prosecution and their analysis, analysis of civil procedure legislation of the Republic of Uzbekistan and its norms on the basis of civil law of foreign countries, procedural coercive measures in foreign practice, its application, comparative analysis of foreign and national civil procedure legislation, civil court suggestions and recommendations on improving procedural coercive measures in the course of proceedings.

**Keywords:** coercive measures, court fine, removal from the courtroom, coercion, compulsory attendance, warning, ruling, court protocol, court order

Mamlakatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu sud tizimini izchil demokratlashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashdir.

O'tgan yillar davomida sudni hokimiyatning mustaqil va alohida tarmog'i sifatida tashkil etish, uni o'tmishdagi jazolash organidan inson huquq va erkinliklarini muhofaza qiluvchi hamda ishonchli himoya qiluvchi davlatning chinakam mustaqil institutiga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi [1].

Shu bilan birga, odil sudlovni ta'minlash uchun fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning sud-huquq tizimiga ishonchini qaytarish, sud ish yuritishini o'z vaqtida va qonuniy asosda ko'rib chiqish uchun belgilangan protsessual qoida va muddatlarga qat'iy amal qilishni ta'minlash zarur. Ayniqsa, bu fuqarolik sud ishlarini yuritishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud majlisi ishtirokchilarining sudda qatnashishini ta'minlash, sud majlisi tartibini buzgan sud majlisi qatnashchilarini ogohlantirish, zarur deb topilgan hollarda sud majlisidan chiqarib yuborish, sud majlisini buzgan shaxslarga sud tomonidan

jarimalar qo'llash orqali sud tartibiga og'ishmay amal qilish protsessual tartibga qat'iy rioya qilishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Amaliyot jarayonlarida sud ishtirokchilarining sud majlisida o'z vaqtida qatnashmasligi, sud majlisiga kelmaslik holatlari ko'plab uchramoqda. Buning natijasida belgilangan protsessual muddatlarga amal qilmaslik holatlari, sud tomonidan ishni ko'rish muddatlari cho'zilishiga olib kelmoqda. Bu fuqarolarning huquq va erkinliklarini o'z vaqtida va adolatli himoya qilishga to'sqinlik qiladi.

Shu bois yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga "Protsessual majburlov choralari" [2] bobining kiritilishi shaxslarning protsessual tartibga rioya qilishini ta'minlash bilan birga sud protsessining o'z vaqtida va sifatli olib borilishiga, protsessual majburlov choralari institutining nufuzini oshirishga xizmat qiladi. O'z o'rnida protsessual muddatni tejash bilan birga sudda protsessual majburiyat va intizomni mustahkamlaydi.

O'z o'rnida ushbu institutning zarurati, mohiyati yuzasidan bir qator ilmiy-nazariy qarashlar va bahs-munozaralar davom etmoqda. Jumladan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, prof.



Z.N. Esanova protsessual majburlov choralari ni mulkiy xarakterdagi majburlov choralari va nomulkiy xarakterdagi majburlov choralariga ajratib, mulkiy tusdagi majburlov choralariga sud jarimasi, nomulkiy xarakterdagi majburlov choralariga esa Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda majburiy keltirish, ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish kirishini ta'kidlab o'tadi [3].

Professor D.Y. Habibullayev protsessual majburlov chorasi sifatida sud jarimalari ekspert yoki mutaxassislariga nisbatan ham solinishi, masalan, agar ekspert sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sudning chaqiruvi bo'yicha kelmasa, sud jarima solishi mumkinligini bildirib o'tadi [4].

Protsessualist olima Ye.V. Chuklova fuqarolik protsessual javobgarlikni ma'no-mazmun jihatdan pozitiv va negativ turlarga ajratish mumkinligini qayd etadi [5].

Yuqoridagi mualliflarning qarashlarini inkor etmagan holda, aytish mumkinki, protsessual majburlov choralari sud protsessida tartib-intizomni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, ayrim hollarda subyektlarga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanishiga asos bo'ladi. Chunki Fuqarolik protsessual kodeksi 145-moddasi ning to'rtinchi qismiga muvofiq, prokuror yoki advokat raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunmagan taqdirda ular ogohlantiriladi. Mazkur shaxslar raislik qiluvchining farmoyishlariga yana bo'ysunmasa, agar ularni ishga zarar yetkazmagan holda, boshqa shaxs bilan almashtirishning imkoni bo'lmasa, ishni ko'rish sudning ajrimiga binoan keyinga qoldirilishi mumkin. Sud bir vaqtning o'zida xususiy ajrim chiqaradi. Ushbu ajrim tegishincha yuqori turuvchi prokuror yoki O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga yuboriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi amaldagi qonunchiligimizda protsessual majburlov choralari faqat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi bilan tartibga solinadi va yuqoridagi majburlov choralari bilan cheklanadi. Majburlov choralari qo'llashning zamon talablariga mos yaxshi tizimi ishlab chiqilmaganligi natijasida amaliyotda ishtirokchilar sud ishida ishtirok etmasligi, sud ishini ko'rishning cho'zilib ketishi, majburlov choralarining ishlamasligi holatlari yuzaga kelmoqda.

Fuqarolik sud ishi yuritish jarayonining turli obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra muddatlari cho'zilib ketadi. Amaldagi fuqarolik protsessual qonunchiligimizda manfaatlari buzilgan yoki nizolashayotgan har qanday shaxs o'zining manfaatlari himoya qilish bo'yicha qonun hujjatlari da belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli ekanligi belgilangan. Sudya esa manfaatdor shaxslardan kelib tushgan arizalarga o'n kun ichida asoslantirilgan javob qaytarishi kerak. Agarda ariza fuqarolik qonunchiligi talablariga javob bermasa, arizani qaytaradi. Bu holat ham qo'shimcha vaqt talab qiladi va arizadagi ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilgach, yana qaytadan umumiy tartibda murojaat qilinishi mumkin. Ariza qabul qilingan va fuqarolik ishi qo'zg'atilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay sudya tomonidan fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash choralari ko'riladi. Fuqarolik ishi sud muhokamasiga tayyorlab bo'lingan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay sud tomonidan ko'rib, hal qiluv qarori chiqarilishi lozim.

Bundan tashqari, fuqarolik ishi o'ta murakkab yoki qo'shimcha o'rganishni talab qilsa, sudyaning asoslantirilgan ajrimiga ko'ra, sud ishni ko'rish muddatini ikki oygacha uzaytirishi mumkin. Umumiy olib qaraganda, bitta fuqarolik ishi ikki yoki uch oy muddatda ko'rib chiqiladi, agar barcha moddiy va protsessual tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilingan bo'lsa. Lekin, sir emaski, amaliyotda fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida tarafdirlarning sud majlisida hozir bo'lmasligi oqibatida sud muhokamasini keyinga qoldirish holatlari ko'p uchramoqda. Bu ham qo'shimcha vaqt talab qiladi. Ikkinchi marta ham sud majlisida qatnashmagan tarafga sud tomonidan zarur deb topilsa, majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini qo'llash to'g'risida ajrim chiqarilishi mumkin. Bu ham muammoning to'liq yechimi emas. Agar sud majlisiga kelmagan tarafning yashash manzili noma'lum bo'lsa, bu shaxsga nisbatan zarur deb topilsa, qidiruv e'lon qilinishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, bu holat o'z huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilishni so'rab, sudga murojaat qilgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash kechikishiga olib keladi.

Shuningdek, fuqarolik qonunchiligimizda sud muhokamasi jarayonida sud tartibini buzgan shaxslar ogohlantirilishi, fuqarolar sud tartibini ommaviy tarzda buzgan holatda yoki prokuror,

advokat sud ishiga raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunmasa va ularni almashtirish imkoni bo'lmasa ham sud ishni ko'rishni keyinga qoldiradi. Bu holatlarning hammasi fuqarolik ishini ko'rishda protsessual muddatlarning cho'zilishiga olib keladi va manfaatdor shaxslarning huquqlarini ta'minlashni kechiktiradi. Shu sababli sud ishtirokchilarining protsessual tartiblarga qat'iy amal qilishi, sud ishlarini o'z vaqtida va sifatli ko'rishni ta'minlash uchun fuqarolik qonunchiligimizdagi mavjud protsessual majburlov choralari takomillashtirish lozim.

Amaldagi qonunchiligimizda protsessual majburlov choralari qo'llash bilan bog'liq bir qancha kamchiliklar mavjud. Jumladan, dastlab majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini qo'llash bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 144-moddasida ko'rsatilishicha, agar Fuqarolik protsessual kodeksining 313-moddasiga muvofiq, sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo'lgan yoki sudga kelishi Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan shart deb topilgan, tegishli tarzda xabardor qilingan shaxs sudga uzrsiz sabablarga ko'ra kelmasa yoxud kelmaganligi sabablarini ma'lum qilmasa, sud tomonidan unga nisbatan majburiy keltirish to'g'risida ajrim chiqarilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 313-moddasida fuqarolik sud ishini ko'rib chiqish belgilangan. Unga ko'ra, sud fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishni prokuror hamda vasiylik va homiylik organining vakili ishtirokida ko'rib chiqadi. Ishi ko'rib chiqilayotgan fuqaro, agar uning sog'lig'i holati imkon bersa, sud majlisiga chaqiriladi. Belgilangan moddaga muvofiq, fuqarolik muomala layoqatini cheklash va muomalaga layoqatsiz deb topilayotgan shaxs sud majlisida ishtirok etishi kerak.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 186-moddasida belgilangan holatlarda, ya'ni sud alimentlar undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha javobgarlik sudga kelishini shart deb topishi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 222-moddasida quyidagicha norma keltirilgan: "Guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon sud majlisiga kelma-

gan taqdirda, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ishni kelmagan guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon yo'qligida ko'rish mumkinligi to'g'risidagi fikrlarini eshitadi va sud muhokamasini davom ettirish yoki ish muhokamasini keyinga qoldirish haqida ajrim chiqaradi. Agar chaqirilgan guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra sud majlisiga kelmasa, ularga nisbatan ushbu kodeksda nazarda tutilgan protsessual majburlov choralari qo'llanilishi mumkin. Agar chaqirilgan guvoh ikkinchi chaqiruv bo'yicha sud majlisiga kelmasa, u sudning ajrimiga binoan majburiy tartibda keltirilishi mumkin".

Amaldagi qonunchiligimizda yuqorida keltirilgan moddalarda majburiy keltirish protsessual majburlov choralari qo'llashning asoslari belgilangan. Fuqarolik protsessual kodeksining 144-moddasida ham aynan Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilmagina sud tomonidan majburiy keltirish mumkinligi aytilgan. Bundan ko'rinadiki, sud majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini ikki asosga ko'ra qo'llaydi, ya'ni:

fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan asosga ko'ra;

sudya zarur deb topgan hollarda.

Yuqorida keltirilgan ikki asos mavjud bo'lganda, majburiy keltirish protsessual majburlov chorasi qo'llanilishi mumkin.

Ahamiyatlisi shundaki, majburiy keltirishni qo'llash uchun yuqoridagi ikki asos bir-birini talab qiladi. Ya'ni Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan bo'lsa ham, sudya zarur deb topmasa, shaxsga nisbatan majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini qo'llab bo'lmaydi.

Aksincha, Fuqarolik protsessual kodeksida majburiy keltirish nazarda tutilmagan bo'lsa, lekin ish holatida, fuqarolik ishini mazmunan hal qilishda shaxsning ishtiroki zarur bo'lsa va sudya tomonidan zarur deb hisoblansa ham, qonunda belgilanmaganligi uchun majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini qo'llab bo'lmaydi. Bu shuni anglatadiki, shaxsni sud muhokamasiga faqat Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan holatlarda majburiy keltirish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, Fuqarolik kodeksida nazarda tutilmagan hollarda shaxsga nisbatan majburlov keltirish majburlov chorasini qo'llab bo'lmaydi.

Bugungi kunda fuqarolik sud ishlarini yuritishda eng asosiy muammolardan biri protsessual muddatlarga amal qilmaslik, ishni ko'rish mudda-



ting cho'zilib ketishi hisoblanadi. Yuqorida tahlil qilinganidek, bir fuqarolik ishini ish yuritishga qabul qilib olinganidan to birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori qabul qilingunga qadar barcha belgilangan protsessual tartib va muddatlarga amal qilgan holatda ikki-uch oy vaqt talab qilindi. Lekin amaliyotda bir fuqarolik ishi o'rtacha olti-yetti oy cho'zilib ketganligi holatlari mavjud.

Garchi fuqarolik sud ishi amaliyotida majburiy keltirish protsessual majburlov chorasi statistikalarda juda kam qo'llanilsa ham, lekin sud majlisiga taraflarning, shuningdek, ishtirokchilarning kelmasligi holatlari ko'plab uchrab turadi. Bunday holatlarda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 223-moddasida keltirilgan quyidagi asoslar bo'yicha sud majlisi keyinga qoldiriladi:

1. Fuqarolik sud ishida fuqarolar tomonidan ommaviy tarzda tartib buzilganda;
2. Raislik qiluvchi tomonidan ogohlantirilganligiga qaramasdan, prokuror yoki advokat sudyaning farmoyishlariga bo'ysunmaslikni davom ettirsa;
3. Uchinchi shaxslar tomonidan tartib buzilsa;
4. Belgilangan tartibda ogohlantirilgan, chaqiruv qog'ozini olgan shaxs sud majlisiga kelmaganida;
5. Tegishli tartibda ogohlantirilgan shaxslardan biri sababsiz sud majlisiga kelmaganida.
6. Agar taraflardan biri uning ishtirokisiz ishni ko'rishni iltimos qilmagan holda, tegishli tartibda xabardor qilinganligiga qaramay sud majlisida qatnashmasa;
7. Guvoh, ekspert, tarjimon yoki mutaxassislardan biri kelmaganida, ularning ishtirokisiz sud ishini ko'rishning iloji bo'lmasa;
8. Da'vogar sud ishini javobgarning ishtirokisiz ko'rishga rozi bo'lmaganda;
9. Qarshi da'vo taqdim etilganda;
10. Sud majlisi yuritishda texnik vositalarda nosozlik kelib chiqqanda, jumladan, videokonferensaloqa tizimidan foydalanish jarayonida nosozlik kelib chiqsa;
11. Qo'shimcha dalillar zarur bo'lganda;
12. Ishda ishtirok etish uchun boshqa shaxslar jalb qilinganda yoki belgilangan boshqa protsessual harakatlar amalga oshirish lozim bo'lganda [6].

Sud ishni sud majlisida ko'rish imkoni bo'lmagan boshqa hollarda ham muhokamani keyinga

qoldirishi mumkin. Yuqoridagi holatlar mavjud bo'lganda, ba'zi holatlarda sudya zarur deb topsa, yuqorida ko'rsatilmagan asoslar bo'yicha ham sud majlisini keyinga qoldirishi mumkin.

Yana bir asosiy masala bu sud xarajatlari bilan bog'liq. Yuqorida tahlil qilganimizdek, sud majlisida hozir bo'lmagan shaxsning majburiy keltirilishi ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning xarajatlarini qoplash masalasi ham asosiy masala hisoblanadi.

Amaldagi fuqarolik protsessual qonunchiligimizga muvofiq, fuqarolik protsessual qonunchiligimizda shaxsning ishtiroki nazarda tutilgan va sudya tomonidan zarur deb topilgan hollarda, shaxsga nisbatan majburiy keltirish chorasi qo'llanilishi mumkin. Bu holatda shaxs sudning o'tkaziladigan joyi va vaqti to'g'risida tegishli tartibda ogohlantirilgan bo'lishi talab qilindi. Bu bo'yicha ishni ko'rayotgan sud tomonidan ajrim chiqariladi va ajrim ijrosi hududiy ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi. Majburiy keltirish bilan bog'liq barcha xarajatlar majburiy keltirilgan shaxs hisobidan qoplanishi lozim.

Bu xarajatlarning majburiy keltirilgan shaxs tomonidan to'lanishi lozimligi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual tartiblarga og'ishmay rioya qilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Lekin Fuqarolik protsessual kodeksining 132-moddasiga ko'ra, javobgarni qidirish uchun qilingan xarajatlar sud ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlarga kiritilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga ko'ra, umumiy qoidaga ko'ra, ish bo'yicha sud xarajatlarini nizo-da nohaq bo'lib chiqqan taraf to'lashi belgilab qo'yilgan. Bu holatda ham Fuqarolik protsessual kodeksining o'zida majburiy keltirilgan shaxsning o'zi tomonidan majburiy keltirish bilan bog'liq xarajatlar qoplanishi lozimligiga oid norma aniq belgilab qo'yilmagan.

Yuqorida keltirib o'tilgan majburlov choralarini qo'llashga oid statistik ma'lumotlarda ogohlantirish protsessual majburlov chorasi eng ko'p qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. Lekin amaliyotda sudda ishtirok etuvchilarning sud tartibini buzganligi natijasida ogohlantirilishining hech qanday huquqiy oqibati mavjud emas.

Shuningdek, amaldagi fuqarolik protsessual qonunchiligimizda sud tartibini qo'pol ravishda buzganlik uchun hech qanday norma belgilanmagan. Ommaviy tartibda sud tartibi buzilganligi sud

majlisining keyinga qoldirilishiga sabab bo'lishi belgilangan. Lekin fuqarolik protsessual qonunchiligimizda sud tartibini buzgan shaxs harakatlari jinoyat alomatlari bo'lsa, u qanday tartibda hal etilishi masalasi ochiq qolgan.

Bundan tashqari, bugunga kelib sud jarayonini zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalari orqali tashkil qilish, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 209-moddasiga ko'ra, "sudlarda videokonferensaloqani amalga oshirishning texnik imkoniyati bo'lgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslar va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar sudning videokonferensaloqa rejimidagi majlisida bu haqda o'zlari iltimosnoma berganda yoki sudning tashabbusiga ko'ra ishtirok etishi mumkin" ekanligi belgilangan. Bu jihat sud-da ishtirok etuvchi shaxslarga qulaylik tug'dirishi bilan birga sudlar uchun qo'shimcha xarajatlar qilishga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi 14-sonli "Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to'g'risida"gi qarori 13-bandiga ko'ra, sudlarning e'tibori qaratilsinki, fuqarolik ishlarini ko'rish bilan bog'liq chiqimlarga:

- guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar;
- joyga borib ko'zdan kechirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- FPK 165-moddasida nazarda tutilgan hollarda javobgarni qidirish uchun qilingan xarajatlar;
- sud xabarnomalari va sud hujjatlarini yuborish bilan bog'liq pochta xarajatlari;
- sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar kiradi.

Boshqa sud xarajatlariga (FPK 132-moddasi birinchi qismining 5-bandi) sud tomonidan oqilona miqdorlarda belgilanadigan, haqiqatda yo'qotilgan vaqt uchun undiriladigan kompensatsiya, vakilning yordami uchun to'lanadigan xarajatlar va h.k. kiradi.

To'g'ri, ushbu Oliy sud Plenumi qarori 14-bandida "sud xarajatlari taraflar tomonidan to'lanishi lozim" ekanligi belgilangan. Lekin Plenum qarorining 13-bandida "Sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, FPK 137-moddasida nazarda tutilgan yo'qotilgan vaqt uchun haq sud tomonidan ishda mavjud hujjatlar asosida:

da'vogardan – insofsizlik bilan asossiz da'vo taqdim etilganda yoxud ishning to'g'ri va o'z vaqti-

da ko'rib chiqilishiga muntazam qarshilik qilingan holda;

javobgardan – insofsizlik bilan da'voga qarshi e'tiroz bildirilganda yoxud ishning to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqilishiga muntazam qarshilik qilingan holda undirilishi mumkin" ekanligi belgilangan. Lekin O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida ham, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi 14-sonli "Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to'g'risida"gi qarorida ham odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslar yoki uchinchi shaxslar tomonidan sud ishning to'g'ri va o'z vaqtida ko'rib chiqilishiga muntazam qarshilik qilingan va sudni ortiqcha xarajat qilishga majbur qilganda, sud xarajatlari qanday taqsimlanishi ochiq qolgan.

Ma'lumki, zamonaviy davrda ijtimoiy hayot jadal rivojlanmoqda, kundalik hayotimizga yangi texnologiyalar bilan birga, yangi ijtimoiy munosabatlar ham kirib kelmoqda. Kundan-kunga qonunchiligimizda belgilanmagan yangi holatlar paydo bo'lmoqda. Shu sababli qonunchiligimizda ba'zi normalar qat'iy cheklab qo'yilmasligi lozim. Jumladan, protsessual majburlov choralari ham. Xorijiy mamlakatlar tajribasida, jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarida "sudya har doim shaxslarning sudga kelishini talab qilish huquqiga ega, hatto shaxsning xatti-harakatlari natijasida sudga kelishi talab qilinmasa ham" [7].

Xorijiy davlatlar tajribasida, jumladan, Germaniyada majburlov choralari tizimi samarali tashkil qilingan. Germaniya fuqarolik protsessual kodeksiga [8] ko'ra, Fuqarolik sud jarayonlarida quyidagi majburlov choralari belgilangan:

1. Xarajatlarni undirish.
2. Ma'muriy jarima.
3. Majburiy qamoq.
4. Majburan ishlab chiqarishga buyurilishi mumkin.
5. Hibsga olish.
6. Sud majlisidan chetlashtirish [9].

Bu davlat tajribasiga ko'ra, belgilangan tartibda chaqirilgan sud majlisi taraflari, sud jarayoniga ko'maklashuvchi uchinchi shaxslar guvoh, ekspert, mutaxassislarning kelmaganligi natijasida kelib chiqadigan xarajatlar ushbu shaxslardan undiriladi. Shu bilan birga, sud jarayoniga kelmagan shaxsga nisbatan majburiy jarima undiriladi va agar ushbu holat undirib bo'lmay-

digan bo'lsa, u majburiy qamoq jazosiga hukm qilinishi belgilangan.

Shaxsning sud jarimasi, ma'muriy jarimani to'lashga imkoniyati bo'lmasa, majburan ishlab chiqarishga buyurilishi tizimi ishlab chiqilgan. Bu majburlov choralarining samarali ishlashini ta'minlaydi.

*Anglo-sakson huquq tizimida majburlov choralari tizimi*

Angliyada 1981-yilda "Sudga hurmatsizlik akti" (Contempt of court act) qabul qilingan. Ushbu aktda sudga hurmatsizlik uchun javobgarlik belgilangan. Agar kimdir adolatli sud jarayonini kechiktirish yoki to'xtatish va sud natijalariga ta'sir qilishga harakat qilsa, u tegishli tartibda javobgarlikka tortiladi. Angliya tajribasida quyidagi holatlarga nisbatan sudga hurmatsizlik sifatida qaraladi:

- sud qaroriga bo'ysunmaslik yoki ularni e'tiborsiz qoldirish;
- fotosuratlar olish yoki sudda baqirish (sud jarayonini buzish);
- guvoh sifatida chaqirilganda, sudya savollariga javob berishdan bosh tortish;
- sud ishi to'g'risida, masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yoki Internetdagi yangiliklarda ommaviy ravishda izoh berish.

"Sudga hurmatsizlik akti"ning 17-bandida Sudga hurmatsizlik qilgani va sud jarayonini buzganligi uchun jarima qo'llanilishi belgilangan. Belgilangan jarimani to'lamaslik qo'shimcha jarima solinishi yoki muayyan huquqlardan mahruh qilinishga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, huquqbuzarga nisbatan 2 yilgacha qamoq jazosi, jarima solinishi yoki ikkala javobgarlik ham qo'llanilishi mumkin [10].

Xorijiy mamlakatlar tajribalaridan yana biri sifatida Skandinaviyadagi majburlov choralari tizimini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Finlandiya tajribasida majburlov choralari uch guruhga bo'linadi: shaxsga nisbatan, mulkka qarshi va odil sud tomonidan tayinlangan majburlov choralari.

Majburlov choralari quyidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi:

1. Majburlov choralari to'g'risidagi akt (Coercive measure act) [11].
2. Politsiya akti (Police act) [12].
3. Ba'zi xorijiy fuqarolar uchun majburlov choralari (Aliens act) [13].

Finlandiyada kreditorlar, fuqarolik yoki tijorat protsessidagi boshqa da'vogarlar o'z foydalariga ehtiyot choralarini ko'rishlari mumkin. Ehtiyot choralarining maqsadi keyinchalik ishning mohiyati bo'yicha chiqarilgan har qanday qarorning bajarilishini ta'minlashdir. Ehtiyot choralarini tayinlashga oid qoidalar Sud protsessual kodeksining 7-bobi [14] va ijro kodeksining 8-bobida sud qarorlarini ijro etish to'g'risidagi qoidalarda keltirilgan.

Finlandiya qonunchiligiga muvofiq, majburlov choralari sudning qarori asosida va sudning qarorisiz ham qo'llanilishi mumkin. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar Politsiya akti (Police act)ga asosan, zarur deb topsalar, sudning qarorisiz ham majburlov choralarini qo'llashlari mumkin.

Sud tomonidan qo'llaniladigan ehtiyot choralari aniq belgilab qo'yilgan. Ular quyidagilar:

- muayyan huquqdan mahrum qilish (sudlanuvchiga jazo tahdidi ostida biror narsa qilish yoki biror narsaga kirishni taqiqlash);
- majburiyat yuklash (sudlanuvchiga jazo tahdidi ostida biror narsa qilishni buyurish);
- vakolat berish (ariza beruvchiga biror narsa qilish yoki biror narsani bajarishga vakolat berish);
- sudlanuvchining mol-mulki agent tasarrufi yoki saqlashiga berilishini buyurish;
- ariza beruvchining huquqlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa ehtiyot choralarini buyurish [15].

MDH mamlakatlari, jumladan, Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston fuqarolik protsessual qonun hujjatlari, xususan, protsessual kodekslariga asosan, ogohlantirish va sud majlisi zalidan chiqarib yuborish choralari qo'llanilmoqda. Birgina Rossiya Fuqarolik protsessual kodeksida [16] sud majlisida tartibni buzuvchilarga qo'llaniladigan choralar ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, jarima qo'llash, jinoyat alomatlari aniqlansa, materiallarni prokurorga yuborish, ommaviy tarzda sudda tartib buzilsa, ish ko'rishni keyinga qoldirish tarzidagi protsessual majburlov choralaridan foydalanilmoqda.

Ukraina Fuqarolik protsessual kodeksida [17] ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, sud tomonidan o'rganish uchun dalillarni vaqtincha olish, guvohni majburiy keltirish tarzidagi; Qozog'iston Fuqarolik protsessual ko-

deksida [18] esa sudga hurmatsizlik ko'rsatganlik uchun majburlov choralari, sudga keltirish, sud majlisi zalidan chiqarish; Turkmaniston Fuqarolik protsessual kodeksida [19] ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, advokat va prokurorni ogohlantirish va bu haqda yuqori turuvchi organga xabar berish; Qirg'iziston Fuqarolik protsessual kodeksida [20] sud jarimasi hamda sud majlisida tartibni buzuvchilarga qo'llaniladigan ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, jarima qo'llash, jinoyat alomatlari aniqlansa, materiallarni prokurorga yuborish, ommaviy tarzda sudda tartib buzilsa, ish ko'rishni keyinga qoldirish tarzidagi protsessual majburlov choralari mavjud.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 144-moddasining birinchi bandi "Agar ushbu kodeksning 313-moddasiga muvofiq, sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo'lgan yoki sudga kelishi ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan shart deb topilgan" qismi o'rniga "Agar ushbu kodeksning 313-moddasiga muvofiq, sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo'lgan yoki sudga kelishi ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda yoki sud tomonidan zarur deb topilgan hollarda" jumlasini kirit-

ishimiz lozim. Chunki ba'zi holatlarda sud guvoh, ekspert yoki mutaxassisning ham sud majlisidagi ishtirokini zarur deb topishi mumkin. Bu holatda Fuqarolik protsessual kodeksimizda bunday shaxslarga nisbatan majburlov choralari nazarda tutilmaganligi sababli majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini qo'llab bo'lmaydi. Majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini qo'llash sudyaning mutlaq vaqolatida bo'lishi lozim.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 145-moddasini "agar sud majlisida tartibni buzayotgan shaxsning xatti-harakatlari jinoyat alomatlari bo'lsa, sud tomonidan sud tartibini buzuvchiga qarshi jinoyat ishini qo'zg'atish uchun tergov yoki dastlabki tergov organlariga tegishli materiallarni yuborish belgilab qo'yilgan" jumlasini to'ldirish lozim. Chunki ushbu moddada sud majlisida ishtirokchilar, bir yoki har ikki taraf yoki uchinchi shaxslar tartibni buzgan taqdirda, sud ishning muhokamasini keyinga qoldirishi mumkinligi belgilangan. Lekin bu holat sud ishini ko'rish muddatining cho'zilishiga olib keladi, xolos. Navbatdagi sud jarayonida sud tartibi yana buzilsa, sud ishini ko'rishni yana keyinga qoldirishi mumkin.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 21.01.2021-y., 06/21/6143/0052-son
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son
3. Z.N. Esanova. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralari (asoslari, tartibi, bu soxadagi yangiliklar). / Yuridik fanlar axborotnomasi. TDYU. B.-10.
4. D.Yu. Habibullayev. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrirlar: yu.f.d., prof M.M. Mamasiddiqov, yu.f.n., prof. D.Y. Habibullayev. – Toshkent. "Lesson press" nashriyoti. 2020. – 607. – B. 258.
5. Chuklova Ye.V. O ponyat i i, priznakax i merax grajdanskoy protsessualnoy otvetstvennost. Vestnik Samarskoy gumanitarnoy akademii. Seriya "Pravo". 2008. №2
6. <https://lex.uz/docs/-3517337>
7. <http://www.attorneyondemand.net/mandatory-court-appearance.cfm>
8. 2005 yil 5 dekabrda e'lon qilingan Fuqarolik protsessual kodeksi (Bundesgesetzblatt (BGBl., Federal Law Gazette) 3202 bet; 2006 431 bet; 2007 1781 bet), oxirgi marta 2013 yil 10 oktabrdagi Qonunning 1-moddasi bilan o'zgartirilgan (Federal qonun) gazeta 3786-bet;
9. [https://www.gesetze-im-internet.de/englisch\\_zpo/englisch\\_zpo.html](https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_zpo/englisch_zpo.html)
10. Contempt of Court Act 1981 (<https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1981/49>)



11. Coercive Measures Act (30 April 1987/450)  
([https://www.imolin.org/doc/amlid/Finland/Finland\\_Coercive\\_Measures\\_Act\\_1987.pdf](https://www.imolin.org/doc/amlid/Finland/Finland_Coercive_Measures_Act_1987.pdf))
12. 1995 Police act of Finland (<https://www.policinglaw.info/country/finland> )
13. Aliens Act of Finland (301/2004, amendments up to 973/2007 included)
14. Code of Judicial Procedure (4/1734; amendments up to 732/2015 included)
15. Coercive Measures Act (30 April 1987/450)
16. Civil procedure code of the Russian Federation of November 14, 2002 no.138-fz (as amended on 08-12-2020)
17. Civil procedure code of Ukraine with amendments and additions provided by the law of Ukraine issued on 23rd June, 2005
18. Civil procedural code of the Republic of Kazakhstan. (Code of the Republic of Kazakhstan dated October 31, 2015 No. 377-V ZRK).
19. Code of civil procedure of Turkmenistan of August 18, 2015 (as amended of the law of turkmenistan of 20.03.2017)
20. Code of civil procedure of the Kyrgyz Republic of January 25, 2017 no. 14 (as amended on 11-04-2020)